

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Karimov	
A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik- stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash tamoyillari	125
A.A.Shernazarov, X.J.Jamolova	
“Boburnoma”dagi forscha baytlarning mualliflari	129
M.B.Rajabova	
Alisher Navoiy ijodida marsiya va lavhalar	133
G.S.Qurbonova	
Nurali Qobul ijodida ayol ruhiyati tasviri	140
M.K.Mirzoyev	
Farzona Xo‘jandiy she‘rlarida motam marosimining badiiy ifodasi	145
M.A.Jo‘rayeva	
Cho‘lponning “Vayronalar orasida” asari janr xususiyatlari	149
L.A.Masharipova	
O‘zbekimning go‘zal urf-odatları	154

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, Z.A.Mirzamatova	
Diplomatik munosabatlar ramz va turlarining tasniflari	158
Z.Sh.Pazilova	
O‘zbek va nemis tillarida to‘y bilan bog‘liq leksik birliklar	163
M.Y.Xusaynova	
O‘zbek va ingliz tillarida paxta leksemasining lingvomadaniyatda aks etishi	168
M.M.Mamajanova	
Ingliz tili grammatikasining retseptiv ko‘nikmalarini o‘rgatish	172
N.A.Xoshimova, M.R.Nematjonova	
Tarjimada realiyalar masalasi	176
X.M.Maripova	
Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya bilan bog‘liqligi	179
N.A.Mansurova	
Tilshunoslikda terminologiya masalalari	183
M.R.Komilova	
O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma leksemalarning o‘rganilishi tarixi.....	187
J.X.Djamolov	
O‘zbek tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni	192
Sh.T.Yusupova	
Lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati xususida	197
M.O.Batirxanova	
Somatik frazeologik birliklar tadqiqida “Madaniy kodlar”	201
G.X.Saydullayeva, O.P.Uralova	
“TikTok” ijtimoiy tarmoq izohlarida xorijiy so‘zlarning izohlarda ishlatilishi.....	203
M.M.Nurmatova, M.O.Oripova	
Nutqiy etiketni shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy omillarning o‘rni.....	206

MATEMATIKA

A.K.Yusupova, B.Qurbonov	
Ba‘zi biologik jarayonlarni differensial tenglamalar yordamida o‘rganish	209
O‘.U.Ismailov	
Atoqli otlar nazariyasi va semantikasi.....	214

FIZIKA– TEXNIKA

E.X.Bozorov, M.A.Abdullayeva	
Oliy ta‘lim muassasalarida “radiatsiya xavfsizligi” fanini o‘qitishda interfaol metoddan foydalanish	218

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA PAXTA LEKSEMASINING LINGVOMADANIYATDA AKS ETISHI**ВЫРАЖЕНИЕ ЛЕКСЕМЫ ХЛОПОК В ЛИНГВИСТИКЕ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****EXPRESSING THE COTTON LEXEME IN LINGUISTICS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES****Xusaynova Munisaxon Yaxshibekovna¹****¹Xusaynova Munisaxon Yaxshibekovna**

–Namangan muhandislik-texnologiya instituti, chet tili o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada, birinchi navbatda, paxtaning kundalik hayotimizdagi o‘rni, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlaridagi zarurati, uning o‘zbek millati uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, o‘zbek tilidagi “paxta”, ingliz tilidagi “cotton” so‘zlarining etimologiyasiga ham e‘tibor qaratilgan. Bu ishda paxta leksemasining ingliz va o‘zbek tillarida turli ma‘nolarda qo‘llanishi ochib berilgan, ular ikki tilda qiyoslangan, o‘xshash va farqli tomonlariga e‘tibor berilgan. Paxta so‘ziga tegishli iboralarning ma‘nolari aniq misollar yordamida tushuntirilgan.

Аннотация

В данной статье показана, прежде всего, роль хлопка в нашей повседневной жизни, его необходимость в различных отраслях народного хозяйства, и насколько он важен для узбекского народа. Также уделяется внимание этимологии слов «пaxта» в узбекском языке и «хлопок» в английском языке. В данной работе выявляется употребление лексемы хлопок в английском и узбекском языках в разных значениях, проводится их сравнение в двух языках, обращается внимание на их сходства и различия. Значения выражений, связанных со словом хлопок, объясняются на конкретных примерах.

Abstract

This article shows, first of all, the role of cotton in our daily life, its necessity in various sectors of the national economy, and how important it is for the Uzbek nation. Also, attention is paid to the etymology of the words "paxta" in the Uzbek language and "cotton" in the English language. In this work, the use of the lexeme cotton in English and Uzbek languages in different meanings is revealed, they are compared in the two languages, attention is paid to their similarities and differences. The meanings of expressions related to the word cotton are explained with the help of concrete examples.

Kali tso‘zlar: paxta, tabiiy paxta tolasi, sintetik tola, milliy boylik, frazeologik birlik, etimologiya, morfologiya, idiomalar, be in tall cotton, linguomadaniyat.

Ключевые слова: хлопок, натуральное хлопковое волокно, синтетическое волокно, национальное богатство, фразеологизм, этимология, морфология, идиомы, beinatalcotton, лингвокультура.

Key words: cotton, natural cotton fiber, synthetic fiber, national wealth, phraseological unit, etymology, morphology, idioms, be in tall cotton, linguistic culture.

KIRISH

Paxta o‘zbek xalqining milliy boyligi hisoblanib, u asrlar davomida xalqimizga kiyim-kechak, oziq-ovqat, chorva ozuqasi, kir yuvish vositalari uchun xom ashyo sifatida xizmat qilib kelmoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, paxta, shubhasiz, yer yuzidagi eng qadimgi tabiiy tolalardan biridir. Paxta tarixi antik davrga, miloddan avvalgi 1200-yillarga borib taqaladi. Arxeologlar tomonidan Meksikaning Texuakan yaqinidagi g‘ordan topilgan mo‘yna va patlar bilan bezatilgan eng qadimgi paxta buyumlari miloddan avvalgi 5800 yilga to‘g‘ri keladi.[1] Dastlab paxta tabiatda yovvoyi o‘simlik sifatida o‘sgan. Keyinchalik odamlar uni xonakilashtirishdi va chatishtirish orqali uning bir necha navlarini yaratdilar. Ayni paytda paxtaning yuzga yaqin navlari bor. O‘zbek xalqi paxtani ezozlab, uni “oq oltin” deb ataydi. Chunki o‘zbek xalqi uchun paxta oltindek qadrlidir. Paxta tolasi jahon to‘qimachilik sanoati uchun tabiiy tolaning eng yirik va qayta tiklanadigan manbai hisoblanadi. U nafisligi, havo o‘tkazuvchanligi, shuningdek, ekologik toza mahsulot ekanligi bilan sun‘iy tolalarga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega. Shu sababli ham ushbu tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillaridan paxta leksemasini turli ma‘nolarda keng yoritishga, ularning farqli va o‘xshash tomonlarini o‘rganishni maqsad qilgan.

Tabiiy tola va paxta sohasiga oid terminlar ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan, lekin paxta so‘zining ingliz va o‘zbek tillarida ko‘chma ma‘nolarda va shu bilan birga, ibora sifatida qo‘llanilishida ayrim frazalar haligacha yoritib berilmagan. Ushbu tadqiqotning maqsadi paxta

TILSHUNOSLIK

leksemasining har ikki tilda uchraydigan ko'chma ma'nolariniva iboralarni topish, taqqoslash va aniq misollar bilan yoritib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Paxta tabiiy tolasi doirasida o'zbek va ingliz tillarida ko'plab olimlar, tadqiqotchilar tomonidan izlanishlar olib borilgan. Bulardan Sh.Holbutayevning "Tabiiy tolalarning mexanik xossalari"[2] nomli tadqiqot ishi, E.T.Shayxov, N.Normammedov, A.I.Shleyxerlarning "Paxtachlik"[3] nomli kitobi, Jaworski, Charles Odlarning "Morphology of the HIV Versus the Diabetic Cotton Wool Spot"[4] nomli tadqiqot ishi, Jane Elizabeth Geissler tomonidan yozilgan "Development and evaluation of cotton, wool, and mohair blend fabrics and assessment of consumer response"[5] tadqiqot ishi, Peter Cooksonning "Natural Fibre Blends of Cotton and Wool"[6] ishlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Muammoni aniqlash va ushbu tadqiqot uchun materiallar turli ijtimoiy tarmoqlarda turli ijtimoiy guruhlarga mo'ljallangan keng jamoatchilik nashrlari uchun ochiq bo'ldi. Shuningdek, o'zbek va ingliz izohli lug'atlarida "paxta" so'ziga tegishli atamalar tahlil qilindi, ular doimiy ravishda yangi misollar bilan to'ldirilib boriladi. Uzluksiz namuna olish usuli yordamida misollar olingan. Qoida tariqasida, biz barcha ishtirokchilar uchun mo'ljallangan aniq mavzularni muhokama qilishga e'tibor qaratdik. Ushbu ilmiy maqolada "paxta" so'zining ingliz va o'zbek tillardagi ma'nolari, ushbu leksemaning turli tomondan yodashib, uning ko'chma va o'z ma'nolariga e'tibor qaratilgan. Demak ushbu maqolada paxta so'zining kelib chiqishiga e'tibor qaratamiz ekan, biz tavsiflovchi metoddan keng foydalanamiz. Shu bilan birga mazkur leksemaning o'z va ko'chma ma'nolarida ishlatilgandagi so'zning ma'nosining o'zgarishi ikki tillatda taqqoslanadi, ularning o'xshash va farqli tomonlariga aniqlaymiz va shuno'rinda qiyosiy va analitik usullardan foydalanilgan. Paxta so'zi bilan bog'liq so'z birikmalari so'zning ma'nosining tubdan o'zgarishi, tillardagi so'z o'yinini kuzatish mumkin. Ushbu sohada konseptual metodlardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Etimologiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, o'zbek tilidagi "paxta" so'zi tojik tilidan olingan bo'lib, "paxta o'simligi urug'iga yopishib hosil bo'lgan oq yumshoq tolali mahsulot" degan ma'noni bildiradi. [7,8] Ko'rinadiki, "paxta" so'zi turkiy va fors-tojik tillarida o'zgarishsiz qo'llanadi.

Boshqa tomondan, "Paxta" so'zi ingliz tilida qayerdan olingan? Bu so'z ingliz tiliga ispan-arab tillaridan eramizning 600-yillari oxirida kirib kelgan. Etimologik jihatdan u o'rta asr ingliz tilidagi "cotoun", qadimgi fransuz tilidagi "coton", qadimgi italyan tilidagi "cotone", arab tilidagi "qutun, qutn" so'zlariga borib taqaladi.[9] Yuqorida sanab o'tilgan barcha tillarda bu so'zlarning fonetikasida o'xshashlikni ko'rishimiz mumkin. Bu so'zlar bir ildiziga ega, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Paxta o'zbek xalqining kundalik ehtiyojlarini ta'minlovchi eng zarur xomashyo mahsuloti bo'lgani uchun o'zbek tilida paxta so'zi o'ziga xos va ko'chma ma'noda keng qo'llaniladi. "Paxta" so'zining o'zbek tilida bir qancha ma'nolarini kuzatishimiz mumkin. "Paxta" so'zi, birinchi navbatda, g'o'za o'simligining urug' va tolalardan tashkil topgan oq paxmoq narsa ma'nosida qo'llaniladi. "*Eski paxta bo'z bo'lmas, asli dushman do'st bo'lmas.*"[10] *Paxtani nobud qilmasdan terib olishni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar tasdiqlandi.* (Gazetadan). Bu so'zni chigitdan ajratilgan va tolaga tayyorlangan paxta mahsuloti ma'nosida ham ko'rishimiz mumkin. *Vaziraning egnida shaftoli guliga monand, ko'ksi ochiq, yelkasiga paxta qo'yib tikilgan yoqasiz shoyi ko'ylak.*. [11] Paxta tolasi massasidan kalava ip olish jarayonida ip yigirish deyiladi. (Jurnaldan). "Paxta" so'zining keyingi ma'nosi g'o'za o'simligi poyasi o'rniga qo'llangan. *Hali quyosh chiqmaganiga qaramay, ketmon tutgan yigitlar paxtaga sug'orishmoqda.* [12] Bundan tashqari, "Paxta" so'zi o'zbek tilida gul tasvirini (ochilgan paxtaga o'xshash) anglatadi. *Qurbonov cho'ntagidan daftar chiqardi: stol ustida ham hozirgidek narsalar – paxta gulli choynak, ikkita piyola, yarim bo'lak non.* (Ulmas Umarbekov "Yoz yomg'iri".[13] Paxta so'zi olma naviga ham tegishli, ya'ni paxta olma ertapishar mahalliy olma navi bo'lib, uni uzoq muddat saqlab bo'lmaydi. *Paxta olmalari pishgan, shovuti qizarib ketgan. Kecha uchinchi mavsumni boshladik.* (G'.G'ulom). "Paxta" so'zi mahalliy o'zbek xalqi tomonidan tayyorlangan oq va och pushti rangdagi paxta kabi yumshoq shirinlik "paxta qand" nomi sifatida ham qo'llaniladi. *Hoshimjonning sehrli qalpoqchasini orzu qilgan bolalar xuddi zeb-ziynat, paxta, loydan hushtak, har xil sharlarni sovg'a qila oladigan lo'lining aravasiga ergashgandek Hudayberdining orqasidan ergashdilar.*[14].

O'zbek va ingliz tillarini solishtirsak, "cotton" so'zi ingliz tilida o'ziga xos va ko'chma ma'noda qo'llanganini ko'ramiz. Cotton so'zi o'zbek tilida bo'lgani kabi ingliz tilida ham mato yasashda ishlatiladigan yumshoq, nozik tolalar o'stiruvchi o'simlik ma'nosida qo'llaniladi. *Cotton grows best in very warm climates.* Shuningdek, bu so'z paxtadan tikilgan mato turi ma'nosida ham uchraydi. *In the early 1900s the town produced more cotton cloth than any other in the world.*[15] Shu bilan birga, ingliz tilida paxta so'zi o'zbek tilida uchramaydigan tikuv uchun ishlatiladigan ip ma'nosida ham qo'llaniladi. *There's a needle and cotton there.* Va nihoyat, bu so'z teriga suyuqlik yoki kremni surtish

uchun ishlatiladigan yumshoq paxta massasini ham anglatadi. *She has bought cotton for her too sensitive face.*

O'zbek va ingliz tillarida "cotton", "paxta" so'zlari ko'pincha o'ziga xos va ko'chma ma'nodan tashqari idioma sifatida ham uchraydi. Bunday idiomalar ham ijobiy, ham salbiy ma'noda qo'llaniladi. Paxta qo'yimoq iborasi o'zbek tilida salbiy ma'noda, "birovga yuzaki xushmuomalalik ko'rsatmoq, ikkiyuzlamachi bo'lmoq" ma'nosida qo'llanadi.

- ... *Men halol narx qo'ydim, to'g'rimi bolalar?*

— *Ona sutiday halol, — deb yigitlar yana paxta qo'ydilar*[16] Keyingi ibora esa "Ko'zining paxtasi chiqmoq" iborasi bo'lib, jahl bilan yoki hayajondan ko'zni katta ochmoq ma'nosini bildiradi. *Ayvonda o'ynab yurgan Muxtor o'yinni unutib, ko'zi paxtasi chiqqandek onasiga tikilib qoldi* [17]. "Paxta bo'lib qolmoq" iborasi meva yoki sabzavotlarga nisbatan "eski bo'lmoq, ichi ezilib qolmoq" ma'nosida qo'llangan. *Qishga qoldirilgan tarvuzlar ichida paxta bo'lib, iste'molga yaroqsiz bo'lib qolibdi.*

"Paxtani chanog'ida qoldirmay termoq" iborasi o'zbek tilida ham keng qo'llaniladi, bu iboraning ma'nosi "hammadan pul yig'imoq, hech kimni ko'zdan chetda qoldirmaslik". *Raqqosa juda jozibali raqsga tushdi va oxirida paxtani chanog'ida qoldirmay terib chiqib ketdi.* Paxta so'zi bilan bog'liq keyingi ibora "Paxta yurak" iborasi bo'lib, ko'ngli bo'sh, har narsaga yig'lagan kishilar uchun qo'llaniladi. *Nigoraning yuragi paxtadan, kitob o'qisa ham yig'laydi.* "Sochi paxta bo'lmoq" iborasi sochi oqarmoq degan ma'noni bildiradi. *Hoy bola, tushingni kutsang, soching paxta, beling qotib qoladi.*[11. b.611]

Ingliz tilida "cotton" so'zi bilan bog'liq turli iboralarni uchratishimiz mumkin. "cotton to" iborasi ijobiy ma'noda qo'llangan bo'lib, biror kishi yoki biror narsa bilan yaxshi, do'stona munosabatda bo'lmoq, yoqtirmoq ma'nosini bildiradi. *His style of humor was very human, and that's why people cotton to him.* [18] Ingliz tilidagi "cotton on" iborasi tushunmoq, anglamoq ma'nolarini bildiradi. *She had already cottoned on to the fact that the nanny was not all she appeared.* "cotton mouth" iborasi og'zi qurib qolmoq, degan ma'noni anglatadi. [19] O'zbek tilida paxta so'ziga tegishli bunday iboralar yo'q. *Mateo had cotton mouth out of fear that people would realize he was lying.* "Be in tall cotton" iborasi biror ishda katta muvaffaqiyatga erishmoq yoki farovonlik davri boshlanmoq ma'nosini anglatadi. *We were in tall cotton after my wife's uncle left us his fortune.*

Bugungi kunda tabiiy tola, ayniqsa, paxta tolasi zamonaviy tadqiqotlarda keng tarqalgan yo'nalishlardan biri bo'lsa-da, bu ob'yektlarga qishloq xo'jaligi emas, balki tilshunoslikning bir qismi sifatida yondashadigan bo'lsak, bu leksemalarning turli tillarda o'ziga xos ma'no kasb etishini kuzatishimiz mumkin. Bu, albatta, o'sha tilda so'zlashuvchi millatning etnik madaniyati, urf-odatlar, an'analari, diniy qarashlari ta'sirining natijasidir. "Paxta" so'zining o'zbek va ingliz tillarida qo'llanilishi bo'yicha kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, paxta so'zi o'ziga xos va ko'chma ma'noda kelganda ikki tildagi ma'nolar bir-biriga nihoyatda yaqin bo'lib, ko'plab o'xshashliklar mavjud.

O'zbek tillarida "paxta" so'zi quyidagi xolatlarda o'z ma'nosi va ko'chma ma'nolarda keladi:

1. Oq yumshoq tola va chigitdan iborat hosil ma'nosida;
2. Paxta hosili beradigan o'simlik ma'nosida;
3. Chigitdan ajratilgan momiq paxta ma'nosida;
4. ochilgan paxtaga o'xshash gul tasviri;
5. paxta kabi yumshoq bo'lgan olma navining nomi sifatida;
6. ko'rinishi paxtaga o'xshagan qand nomi sifatida.

O'rganishlar natijasida aniqlandiki, ingliz tilida ham paxta so'zi bir necha ma'nolarda ishlatiladi, ular quyidagilar:

1. mato yasash uchun ishlatiladigan yumshoq, nozik tolalar o'stiruvchi o'simlik
2. paxtadan tikilgan mato turi ma'nosida
3. tikuv uchun ishlatiladigan ip ma'nosida
4. teriga suyuqlik yoki krem surtish uchun ishlatiladigan yumshoq paxta massasi ma'nosida

"Paxta" bilan bog'liq so'z birikmalar har ikkala tilda ham ko'rinadi. Biroq, bu so'zlar idioma sifatida paydo bo'lganda deyarli hech qanday o'xshashlik kuzatilmadi. Ularning ma'nolari ikki tilda turlicha ishlatilgan. Ishlanishlar natijasi o'laroq, o'zbek tilidagi "paxta" so'ziga aloqador quyidagi iboralar topildi:

- paxta qo'yimoq
- ko'zining paxtasi chiqdi
- ichi paxta bo'lib qolmoq
- sochi paxta bo'lmoq
- paxtani chanog'ida qoldirmay termoq

TILSHUNOSLIK

O'z navbatida, ingliz tilida ham "paxta" atamasi ishtirokida bir nechta so'z birikmalari mavjud bo'lib, ular o'zining ma'nosini anglatmaydi, balki ushbu leksemaga taalluqli bo'lmagan ma'nolarda ishlatiladi:

- be in tall cotton
- cotton on
- cotton to
- cotton mouth

XULOSA

Hayotning barcha jabhalarining evolyutsiya jarayonida rivojlanishi, albatta, tilshunoslikka ham ta'sir qiladi. Shunday qilib, tilshunoslik hayotning boshqa sohalari bilan ham rivojlanadi. Texnikaning rivojlanishi bilan bir qatorda tilshunoslikka turli atamalar ham kiritilmoqda.

Qishloq xo'jaligi uzoq tarixga ega. Paxta ekish, undan turli xomashyo olish va tayyor mahsulot tayyorlash ham ming yillar avval boshlangan. Hozirgi kunda paxta qishloq xo'jaligining eng muhim bo'g'ini bo'lishi bilan birga madaniyat, adabiyot va tilshunoslikning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida paxta so'zining ma'nosi bir-biriga juda yaqin bo'lsa-da, so'z birikmasi sifatida kelganda, lekin ikki til o'rtasida katta farqni kuzatish mumkin. Bunday iboralar ma'nolarida esa xalqlarning madaniyati, diniy qarashlari, urf-odatlariga katta o'rin tutadi. Bunday iboralar adabiyotda yozuvchi va shoirlar tomonidan fikrni rang-barang ifodalash uchun keng qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR

1. Sh. Holbutayev "Tabiiy tolalarning mexanik xossalari" Journal of Physics and Technology Education. 2000. Volume 2- Issue 9-p 169-172
2. E.T.Shayhov, N.Normuhamedov, A.I.Shleyxov... "Paxtachilik" Toshkent. 1990
3. Jaworski, Charles OD. "Morphology of the HIV Versus the Diabetic Cotton Wool Spot" Optometry and Vision Science. November 2000. Volume 77- Issue 11-p 600-604
4. Jane Elizabeth Geissler "Development and evaluation of cotton, wool, and mohair blend fabrics and assessment of consumer response". Texas Tech University. May. 1993
5. Dr. Peter Cookson "Natural Fibre Blends of Cotton and Wool" CSIRO Division of Textile and Fibre Technology and Australian Cotton Cooperative Research Centre, P.O. Box 21, Belmont, Victoria 3216.
6. A. Madvaliyev "O'zbek tilining izohli lug'ati" Tashkent 2021.
7. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati // O'qituvchi nashriyoti Toshkent 1978. b.14
8. <https://www.englishfinecottons.co.uk>
9. H.Suvonqulova "O'zbek xalq maqollari" 2014 b. 73
10. Said Ahmad "Ufq" Toshkent 1976. b.253,
11. A.Qodiriy "Obid ketmon" pp.
12. O'lmas Umarbekov "Tanlangan asarlar" "Sharq" NMAK, Toshkent 2005 b.23
13. Said Ahmad "Kiprikda qolgan tong" . "Sharq" NMAK Toshkent 2008. b.31
14. Bhattarai S. P, McHugh G. L, Lotz G. and Midmore D. J. "The response of cotton to subsurface drip and furrow irrigation in a vertisol" 2006. Pp. 42-49
15. X.Xusayniy "Shamol ortidan yugurib" Yangi asr avlodi nashriyoti. Tashkent 2016. b48
16. Pirimqul Qodirov "Erk" www.ziyouz.com b.51
17. M.D.Buser, D.P.Whitelock, J.C. Boykin and G.A. Holt "Characterization of cotton Gin Particulate Matter Emissions-Project plan. The Journal of Cotton Science No16.2012. pp. 105-116
18. <http://idioms.thefreedictionary.com>
19. Reed, J.N., E.M. Barnes and K.D. Hake. 2009. US Cotton Growers Respond to Natural Resource Survey. Technical Information Section. International Cotton Advisory Committee, THE ICAC RECORDER, Vol. XXVII. No. 2, June 2009.
20. Umarov. E. So'z xususida so'z.// Til va adabiyot ta'limi. 2002-y 2-son
21. SH.Rahmatullayev. O'zbek tili etimologik lug'ati.
22. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.